

O`QUVCHILARNI KITOBXONLIGINI OSHIRISHDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI

Karimova Shaxnoza Mfadirovna

Toshkent shahar Shayxontoxur tumani

*Xalqaro islom akademiyasi qoshidagi "Ziyo-Zukko umumta'lim maktabi" NTM
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Kitob – beg‘araz o‘qituvchi” ekanligini hisobga olib, o‘quvchilarda badiiy-estetol motivlarni shakllantirishda kitob mutolaasi o‘rni va kitobxonlik madaniyatidan foydalanishni oila hamkorligida tashkil etishning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Kitobxonlik, mutolaa, adabiyot, maktab, o‘quvchi.

KIRISH

Yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O‘zbekistonda katta e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirzieyov tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma’nан yetuk, barkamol avlodni va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko‘rsata oladigan ko‘ngilli, milliy g‘urur hissi ustun bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardanbiri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda “biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” [1] va o‘sib kelayotgan yosh avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan mas’uliyat yuklamoqda.


ASOSIY QISM

Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa albatta, maktab ta’limining o‘rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari bu borada maktab o‘qituvchilarining oldiga o‘quvchilarda milliy xususiyatlardan bo‘lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga urg‘u bermoqdalar. Ma’naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo‘jizaga ta’rif berib “...yetti mo‘jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug‘ligiga qo‘yilgan mangu obida bo‘lib kelmoqda. Biroq, shunday bo‘lsa-da, olamda yana bir mo‘jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo‘jizaning jamiki ulug‘vorligi, go‘zallidan kamlik qilmaydi. Bu mo‘jiza – kitob. Kitobning mo‘jiza, mo‘jiza bo‘lganda ham birinchi mo‘jiza ekanligini ko‘pgina buyuk odamlar qayd qilgan”, – deb yozadi. Jumladan, yozuvchi va dramaturg C.Sveyg “Qaerdaki kitob bor ekan, u yerda odam o‘zi bilan o‘zi uzlatda, o‘z ko‘lami doirasida

qolib ketmaydi, u o‘tmish va bugungi kunning barcha olamshumul yutuqlariga, butun insoniyatning fikr va tuyg‘ulariga oshno bo‘ladi”, – deb yozadi. Yozuvchi va faylasuf J.Svift “Kitoblar aql farzandlaridir” desa, pedagog va yozuvchi Ya.Komenskiy “Kitoblardonishmandlikni yoyish qurolidir”, – deydi, faylasuf va tarixchi F.Bekon esa “Kitoblar zamon to‘lqinlarida suzuvchi va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir”, – deb yozadi. Shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar va yozuvchi-yu, olimlar kitobning mo‘jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va ma’naviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq do‘stga, davr ko‘zgusiga o‘xshatganlar. Eng muhim, kitob jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir.

O‘quvchi yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish ko‘pgina zararli illatlarni oldini olishga sabab bo‘ladi. I.S.Zbarskiy shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning uch muhim komponenti bor ekanligini ta’kidlab o‘tgan [2]:

- 1) Kognitiv komponet – o‘quvchilarda ma’naviy ongini, badiiyeruditsiyani, dunyoqarashini shakllanishi bilan tavsiflanadi.
- 2) Emotsional komponent – o‘quvchilarda estetik hislar, emotsional qadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi.
- 3) Xulq-atvor komponenti – o‘quvchilarining ijtimoiy xulq me’yorlariga rioya etish ko‘nikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.



1-rasm. I.S.Zbarskiy bo‘yicha kitobxonlik madaniyatishakllantirishning komponentlari.

Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta’lim muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

Kitobxonlik madaniyati haqida so’z borar ekan, avvalo yoshlarga kitob o’qish qoidalari va turlari haqida ma’lumotlar, tushunchalar berish lozim bo‘ladi.

O’qish – nutq faoliyatining murakkab turi bo‘lib, u ikki jihatga ega: ya’ni, texnik jihat – o’qish va tez o’qish ko’nikmalarini egallash va ijodiy jihat – matndan zarur ma’lumotni tanlab olish.

Mutolaa qilinayotgan manbani mazmunini o'zlashtirish darajasi bo'yicha quyidagi o'qish turlari ajratiladi: ko'rib chiqiladigan o'qish – umumiylashtirish; bo'lish uchun; tanishuv o'qish – umumiylashtirish; ajratuv o'qish – ma'nosini chuqur tushinib olish uchun o'qish voida va turlari ko'rsatilgan.

Ko'rib chiqiladigan o'qish odatda tanishuv va o'rganuv o'qishdan oldin amalga oshiriladi. Kitob mazmuni, uning boblari va paragraflari, asar muallifi bilan tanishish zarurati bo'lganda foydalaniladi.

Ko'rib chiqiladigan o'qish jarayonida odatda titul varag'i, mundarija, ayrim xat boshi va gaplar o'qib chiqiladi. Ushbu ma'lumotlarning o'zi shu manba qay darajada kerakligini hal etishga yordam beradi.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishga ko'maklashadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak:

- Oilada kitobxonlik muhiti yaratilsagina, mahallalarda bu borada ishlar olib borilsa o'quvchilarining ushbu yo'nalishdagi shakllanishi tezlashishi muqarrar;
- O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati ularning ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy ongingin oshishiga xizmat qiladi;
- Maktablarda murabbiylik soatlarida badiy asar mutoalasini targ'ib qilish orqali o'quvchilarda altruistik xulq motivlarini shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston 2017. B.48.
2. Zbarskiy I.S. Adabiyotdan sinfdan tashqari ishlar (4-8): o'qituvchi uchun qo'llanma. - M.: Ma'rifat, 1980. - 208 b.
3. Kutubxonachining ma'lumotnomasi. - Sankt-Peterburg, "Kasb", 2010. -S. 187.
4. Yastrebova E.M. Kutubxonalarni strategik boshqarish va strategik rejorashtirish: tarixiy ekskursiya, maqsad va mohiyati. Leksiya. - M.: MGUK, 2018. -S. 47.